



**HUMAN**  
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

[www.humansciences.uz](http://www.humansciences.uz)

**INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI**  
**JOURNAL OF HUMANITIES**  
**ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**2026**

**2-JILD | 6-SON**

## MUNDARIJA

### TARIX FANLARI

*Sultonov Husan*

XVIII–XIX ASR XORIJIY MANBALARIDA XORAZM SHAHARLARINING TAVSIFI .....6-10

*Egamberganova Zulayxo*

XORAZM O'ZBEKLARI OILAVIY MAROSIMLARINING DINIY VA MILLIY QADRIYATLAR  
ASOSIDAGI ETNOMADANIY TALQINI ..... 11-14

*Rajabova Surayyo*

XORAZM VOHASI ANTIK DAVR XO'JALIK HAYOTINING TARIXIY REKONSTRUKSIYASI  
MASALALARI ..... 15-18

*Ro'zmetov Jahongir*

XORAZM SAVDOGARLARINING O'RTA ASRLARDA DASHT KO'CHMANCHILARI BILAN  
ALOQALARI: ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR TAHLILI ..... 19-23

*Yuldashev Suhrobjon*

NIKOLAY IVANOVICH VAVILOVNING XORAZM EKSPEDITSIYASI: O'SIMLIK GENETIK  
RESURLARINI O'RGANISH TARIXI VA ILMIY AHAMIYATI ..... 24-33

*Mavlonova Mohinur*

MA'MUNIYLAR DAVRIDA XORAZM IJTIMOY HAYOTI, URF-ODATLARI VA  
MADANIYATI ..... 34-38

*Ozodova Go'zalxon*

ILK O'RTA ASRLARDA XORAZM VA TURK XOQONLIGI MUNOSABATLARI  
TARIXSHUNOSLIGI ..... 39-44

### FILOLOGIYA FANLARI

*Isanova Feruza*

INGLIZ YURIDIK TERMINLARINING O'ZBEK TILIGA O'ZLASHISHI: LEKSIK-SEMANTIK VA  
TIPOLOGIK TAHLIL ..... 45-49

### YURIDIK FANLAR

*Xujabekov Umidjon, Xujanova Munisa*

STARTAPLAR VA VENCHUR KAPITAL: HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI ..... 50-55

*Xursanova Fotima*

ENTERPRISE UZBEKISTAN AND THE TRANSPLANTATION OF ENGLISH CONTRACT LAW:  
A NEW FRONTIER FOR COMMON LAW IN CENTRAL ASIA ..... 56-63

---

*Article / Original Paper***XORAZM VOHASI ANTIK DAVR XO'JALIK HAYOTINING TARIXIY REKONSTRUKSIYASI MASALALARI****Rajabova Surayyo Madaminovna**

Ma'mun universiteti "Tarix" ta'lim yo'nalishi

1-bosqich magistratura talabasi

E-mail: [rajabova\\_surayyo@gmail.com](mailto:rajabova_surayyo@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qadimgi Xorazm vohasining antik davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Xorazm sivilizatsiyasining shakllanishi, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo aloqalarining rivojlanishi, markazlashgan davlat boshqaruvi va xo'jalik hayotining rekonstruksiya masalalari yoritiladi. Tadqiqotda arxaiik bosqichdan boshlab IV–VII asrlargacha bo'lgan tarixiy bosqichlar arxeologik, yozma va ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** antik davr, arxaiik bosqich, sug'orma dehqonchilik, Kangyuy, Kushon imperiyasi, Tuproqqal'a, hunarmandchilik, savdo aloqalari.

---

**ISSUES OF HISTORICAL RECONSTRUCTION OF THE ECONOMIC LIFE OF THE KHOREZM OASIS IN THE ANTIQUE PERIOD****Rajabova Surayyo Madaminovna**

Master's Student, Department of History,

Mamun University, Uzbekistan

**Annotation.** This article analyzes the socio-economic and cultural development processes of the ancient Khorezm oasis during the antique period. It examines the formation of the Khorezm civilization, the irrigation-based agricultural system, the development of crafts and trade relations, as well as the system of centralized state governance. The study analyzes historical stages from the archaic period to the 4th–7th centuries based on archaeological, written, and scholarly sources.

**Keywords:** ancient period, archaic stage, irrigated agriculture, Kangju, Kushan Empire, Toprak-kala, crafts, trade relations.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i6v2y2026/n03>**Kirish.**

Qadimgi Xorazm vohasi Markaziy Osiyo sivilizatsiyalarining eng qadimgi va yirik madaniy-siyosiy markazlaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Antik davrda ushbu hududda shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, sug'orma dehqonchilikka asoslangan xo'jalik tizimi, hunarmandchilik va savdo aloqalari Xorazm davlatining siyosiy barqarorligi va iqtisodiy qudratini ta'minlagan muhim omillar hisoblanadi. Xususan, voha-tumanlarga asoslangan hududiy tuzilma, jamoaviy mehnat an'analari va markazlashgan boshqaruv tizimi qadimgi Xorazm jamiyatining o'ziga xos rivojlanish modelini yuzaga keltirgan [2]. Bu esa o'z navbatida antik davrda Xorazm vohasi xo'jalik hayotining ancha yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Xorazm antik davri tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni va ushbu tadqiqot doirasida yozilgan manbalarni uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi, ulkan sug'orish tizimlarining barpo etilishi, qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining yuksak ravnaq topgan davriga oid manbalar kiritiladi.

Ikkinchi guruh manbalarini antik davr (mil. avv V-I asrlar) manbalari tashkil etadi. Xorazm hududida davlat tuzumining paydo bo'lishi va dastlabki yirik sug'orish kanallarining qurilishi haqida ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin.

Uchinchi guruhga milodiy II asrning oxirlaridan boshlab Xorazmning Kushon imperiyasi tarkibiga kirganligi hamda davlatning iqtisodi, xo'jalik hayotini aks ettiruvchi manbalar kiradi.

Bu manbalar orqali Xorazm vohasining antik davrdagi xo'jalik hayoti bilvosita rekonstruksiya qilinadi [4].

To'rtinchi guruhni sovet davri tarixshunosligi sifatida qayd etish mumkin. Bu guruhga XIX-XX asrlarda yozilgan manbalarni kiritish mumkin. Bu davrda yozilgan manbalarda arxeologik topilmalar, yozma manbalar va ilmiy tadqiqotlar ushbu jarayonning tarixiy asoslanganligini ko'rsatiladi. S.P.Tolstov, Y.G'ulomov kabi arxeologlar tomonidan turli qazishma ishlari olib borilgan va Xorazm vohasi aholisining yashash sharoiti, turmush tarsi, diniy e'tiqodlari va ular bilan bog'liq turli marosimlar yoritilgan manbalar yozilgan [9].

Beshinchi guruh manbalarini mustaqillik davri adabiyotlari tashkil etadi. Bu davrda yozilgan maqolalar, adabiyotlar hamda turli monografiyalar, dissertatsiyalar Xorazmning antic davrdagi holatini rekonstruksiya qilishda poydevor bo'lib xizmat qiladi [1].

Yuqoridagi manabalarga tayangan holda antik davrni 4 bosqichga ajratish mumkin [4].

Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va antropologik tadqiqot usullariga asoslangan. Asosiy manba sifatida arxeologik materiallar, etnografik tadqiqotlar va tarixiy hujjatlar tahlil qilingan.

## **TAHLIL**

Yozma manbalarda antik davrning arxaik bosqichidagi Xorazm tarixi haqida deyarli ma'lumotlar kam. Miloddan avvalgi VI asrga oid yunon tarixchisi Gekatey o'z asarida "tekisliklar va tog'lardan iborat" xorasmiylar mamlakati haqida keltirib o'tadi [10].

Shuningdek, arxaik bosqichda yashagan aholining manzilgohlari hamda qal'alari antik davrning keyingi bosqichidagi qal'alaridan keskin farq qilgan. Ular baland qoldiq tepaliklarda (mahalliy tilda – g'orlar) joylashgan bo'lib, tepaliklar kuchli devorlar bilan o'ralgan, devorlarda o'q otish teshiklari va tashqariga chiqib turuvchi minoralar bo'lgan. Arxaik bosqichga oid Ko'zaliqir yodgorligi o'rganilganda, devor bilan o'ralgan hududning katta qismi qurilmaganligi aniqlangan. Turar joylar devorlar bo'ylab joylashgan bo'lib, ular bilan bir butun tizimni tashkil etgan. Bunday inshootlar "turar-joy devorli qal'alar" deb ataladi. Qal'a ichidagi keng bo'sh hududlar chorva uchun qo'ra vazifasini bajargan, chunki urush paytida chorvani himoya qilish hayotiy zarurat bo'lgan.

Yodgorlik qadimiy Charmanyob kanali hududida joylashgan bo'lib, unga ko'plab kanallar tutashgan. Sug'orish inshootlari o'zining kattaligi bilan hayratga soladi. Faqat yon kanallarning o'zi ham 35-40 metr kenglikka ega. Karl Marks Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid juda muhim fikr bildirib, sug'orish kanallari va aloqa vositalari "kichik jamoalar ustidan ko'tarilgan markaziy, kuchli hokimiyat tomonidan yaratilgan" deb ta'kidlagan [5].

Rekonstruksiya ishlari shuni ko'rsatadiki, arxaik davrda dehqonchilik hamdan chorvachilikka katta e'tibor berilgan. Miloddan avvalgi IV asrga kelib Xorazmda markazlashgan boshqaruvga ega mustahkam davlat shakllangan.

Gerodot yozgan ma'lumotlarga ko'ra, massagetlar yashagan hududdan Amudaryo oqib o'tgan. Uning ko'plab irmoqlari botqoqliklarga singib ketgan, biri esa Kaspiy dengiziga quyilgan. Bu hudud aholisi quyidagi hayot tarziga ega bo'lgan: ayrimlari orollarda yashab meva bilan, boshqalari botqoqliklarda yashab baliq bilan oziqlangan, yana boshqalari esa jangchilar bo'lib, otliq va piyoda jang qilishni bilgan, kamon va nayza bilan qurollangan. Ularning buyumlari oltin va misdan yasalgan [3].

Antik davrning keyingi davri tarixda Kangyuy bosqichi deb ataladi. Xitoy manbalarida tilga olingan Kangyuy davlatini ayrim olimlar Xorazm bilan tenglashtiradi. Bu davlat kuchli qo'shin va mustaqil siyosatga ega bo'lgan. Bu davrda dehqonchilik asosiy xo'jalik sohasi bo'lib, sug'orish tizimi yuqori darajada rivojlangan. Hunarmandchilik, ayniqsa kulolchilik rivojlangan. Nafis sopol idishlar, haykalchalar va bezaklar yaratilgan. Xorazm yozuvi ham paydo bo'la boshlagan.

III asrga oid Tuproqqal'a yodgorligi mashhur yodgorliklardan bo'lib, bu yerdan podsho saroyi, haykallar, devoriy rasmlar va yozma hujjatlar topilgan. Bu Xorazm madaniyatining yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Tuproqqal'ada aniqlangan devoriy rangli suratlar hamda boshqa arxeologik yodgorliklardan topilgan sopol idishlarning sirtidagi tasvirlarda, bog' va uzumzor oralab meva va uzum terib yurgan ayol va erkaklar ifodalanganligi, Xorazmda uzum yetishtirish va bog'dorchilik keng rivojlanganidan guvohlik beradi. Uzumdan may tayyorlash va katta sopol idishlarda saqlash bilan bog'liq bo'lgan inshootlar, ko'p xumlar, Xorazmning turli dehqonchilik vohalarida aniqlanib, shuningdek, o'rik va shaftoli danaklari topilgan. Katta oila jamoalari qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab, o'z ehtiyojlarini qondirib turganlar hamda soliqlarni mahsulot bilan to'lashgan. Uy sharoitida ip yigirish, to'qimachilik, kiyim tikish, bo'yra to'qish, yog'och va suyakka ishlov berish hamda charm ishlab chiqish rivojlangan [6].

IV-VII asrlarga kelib Xorazm hududida inqiroz yuz beradi. Kulolchilik sifati pasayadi, shaharlar vayron bo'ladi. Natijada hayot qishloq manzilgohlariga ko'chadi, qal'alar paydo bo'ladi va jamiyat asta-sekin feodal munosabatlarga o'ta boshlaydi.

Keyingi davrlarda Xorazmda hukmdorlarning tangalari zarb etilib, mamlakat iqtisodiy munosabatlariga pul muomalasi kiritiladi va mintaqalararo bozor rivojlanadi [2]. Shuningdek, ichki bozorda natural mahsulot almashish jarayoni davom etadi. Tashqi savdo yo'nalishlari, Amudaryo, Uzboy o'zani, Sharqiy Kaspiy hududlari bo'ylab, Xorazmni Baqtriya, Marg'iyona, Parfiya va Eron bilan bog'lagan, shu qatorda Xorazm vohasidan Yevroosiyo dashtlariga tranzit savdo yo'llari o'tgan. Amudaryo suv yo'li va Baqtriya hududi orqali Hindiston bilan ham savdo aloqalar rivojlangan, buni voqa qadimiy shaharlarida ko'p miqdorda topilgan kushon podshohlarning tangalari tasdiqlab beradi [7]. Yevroosiyo dashtlarida yashagan ko'chmanchi chorvadorlarning mozor qo'rg'onlarida nafaqat Hindiston va Eronda yasalgan hunarmandchilik buyumlari aniqlangan, balki G'arbiy Sibirdagi Isakov mozor qo'rg'onidan topilgan, kumushdan ishlangan, sirtida Xorazm yozuvi mavjud ikkita idish ham e'tiborga molikdir. Ushbu topilmalar xorazmliklarning tashqi iqtisodiy aloqalarda faol ishtirok etganini ko'rsatadi. Tashqi tranzit karvon savdosi Xorazm davlatining markaziy boshqaruvi nazoratida bo'lib, keng taraqqiy topgan.

Antik davrda Xorazm vohasida an'anaviy bug'doy, arpa, tariq yetishtirilib, ehtimol, sholi ham ekilgan. Yunon geografi va tarixchisi Strabonning aytishicha, sholikorlik Baqtriyada, ya'ni Oks (Amudaryo) havzasida rivojlangan. Yunon muallifi shunday yozadi: "Aristobulning

soʻzlariga koʻra, sholi koʻp boshoqlar va ancha don hosil qilishi uchun suv toʻsilgan joylarda ekilgan boʻlib, toʻppa-toʻgʻri suvdan oʻsib chiqadi” [8].

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Xorazm vohasi qadimgi davrlardan boshlab Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida shakllangan. Arxeologik va yozma manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, antik davrda bu hududda sugʻorma dehqonchilikka asoslangan rivojlangan xoʻjalik tizimi, yuqori darajada taraqqiy etgan hunarmandchilik va keng savdo aloqalari mavjud boʻlgan. Markazlashgan davlat boshqaruvi va keng sugʻorish tizimi Xorazmning siyosiy barqarorligi va iqtisodiy qudratini taʼminlagan. Kangyuy va Kushon bosqichlarida esa Xorazm mintaqaviy va xalqaro savdo aloqalarida faol ishtirok etgan. IV–VII asrlarga kelib yuzaga kelgan inqirozga qaramay, Xorazmning madaniy va tarixiy merosi keyingi davrlar taraqqiyotiga muhim asos boʻlib xizmat qilgan.

### **Adabiyotlar/Литература/References**

1. Berdimurodov A. Oʻrta Osiyo tarixiy geografiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Вайнберг Б.И.. Монеты древнего Хорезма. – М.: 1977.
3. Воробьева М.Г. Дингильдже. Усадьба тысячелетия до н.э. в древнем Хорезме // МХЭ. – М.: 1973. Вып. 9.
4. Воробьева М.Г. Из истории древнего Хорезма. – М.: 1958.
5. К. Маркс. Формы, предшествующие капиталистическому производству. ВДИ., 1940, № 1.
6. Лившиц В.А. Документы // Топрак-кала. Дворец.Тр.ХАЭЭ. – М.: 1984. Т.XIV.
7. Ртвеладзе Э.В. Находки монет на Великом Индийском пути // Нумизматика Центральной Азии. – Ташкент: 2010. Вып IX.
8. Страбон. Кн. XI, 8, 8.
9. Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: 1948.
10. Ф. Энгельс. Диалектика природы. Госполитиздат, – М.: 1950.

**HUMANSIENCES.UZ***№ 6 (2)-2026***INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI****JOURNAL OF HUMANITIES****ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**INSONSHUNOSLIK FANLARI** elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

**TAHRIRIYAT MANZILI:**

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)